

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUSTAQILLIKDAN KEYIN MILLIY
BAYRAMLARIMIZ VA MILLIY QADRIYATLARIMIZNING QAYTA
TIKLANISHI**

**RESTORATION OF OUR NATIONAL HOLIDAYS AND NATIONAL
VALUES AFTER INDEPENDENCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**ВОССТАНОВЛЕНИЕ НАШИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ
ПРАЗДНИКОВ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ ПОСЛЕ
ОБРЕТЕНИЯ НЕЗАВИСИМОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.**

Norimonova Gulmira Ulug'bek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali siz Mustaqillikdan keyingi O'zbekistonda amalga oshirilgan milliy bayramlar va qadriyatlarning tiklanishi haqida umumiy tasavvurlar beradi deb o'ylayman. Mustqailikdan keyingi davrda asrlar davomida shakllangan xalqimizning bebaho bayramlarini qayta tiklash va ularni ommaviy tarzda nishonlashga alohida e'tibor qaratilganiga to'xtalamiz. Mustaqillikdan keyingi o'tgan qisqa vaqt davomida bu sohada o'ziga xos tajriba to'plandi va bayramlar bilan bog'liq bo'lgan yangi san'at turlari dunyoga keldi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyingi milliy bayramlar va qadriyatlarning qayta tiklanishi muhim mavzulardan biri hisoblanadi.

Аннотация: Я думаю, что эта статья даст вам общее представление о национальных праздниках и восстановлении ценностей в постнезависимом Узбекистане. В постнезависимый период особое внимание уделяется восстановлению бесценных праздников нашего народа, формировавшихся веками, и их публичному празднованию. За короткий период после обретения независимости в этой области был накоплен уникальный опыт, зародились новые виды искусства, связанные с праздниками. Именно поэтому восстановление национальных праздников и ценностей после обретения независимости является одной из важных тем в Республике Узбекистан.

Abstract: I think that this article will give you a general idea of national holidays and the restoration of values in post-independence Uzbekistan. In the post-independence period, special attention is paid to restoring the priceless holidays of our people, which have been formed for centuries, and celebrating them in a public way. During the short period after independence, a unique experience was accumulated in

this field, and new types of art related to holidays were born. That is why the restoration of national holidays and values after independence is one of the important topics in the Republic of Uzbekistan.

Kalit soʻzlar:Mustaqillik, milliy bayramlar, milliy qadriyatlar, tiklash, Oʻzbekiston, milliy ong, maʼnaviyat.

Ключевые слова: Независимость, Национальные праздники, Национальные ценности, Рестораны, Узбекистан, Национальное сознание, Спиритуалисты.

Key words: Independence, national holidays, national values, restoration, Uzbekistan, national consciousness, spirituality.

Kirish:Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilan davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida oʻzgarishlar yuz berdi. Mustqailigimizni qoʻlga kiritganimizdan keyin, xalqimizning tarixiy, madaniy va diniy qadriyatlarini qayta tiklash, milliy bayramlar va anʼanalarni qayta jonlantirish zaruriyati tugʻildi. Mana shu jarayonni amalga oshirishda Oʻzbekiston hukumati milliy identitetni mustahkamlashga, xalqni birlashtiruvchi tadbirlarni tashkil etishga alohida eʼtibor berdi. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq milliy bayram va milliy qadriyatlarimiz yangi maʼnoda boyitildi. Oʻzbekistondagi bayramlar mamlakatning rang- barang madaniy va tarixiy merosini oʻzida aks ettiradi. 1991-yil 1-sentabr “Mustaqillik kuni”, 1992-yil 8-dekabr Konstitutsiya qabul qilingan kun, 21-mart “Navroʻz” bayrami, 9-may “Xotira va qadrlash kuni” kabi bayramlar muhim oʻrin tutadi. Shu kabi bayramlar nafaqat davlat siyosatini balki, milliy qadriyatlarni, anʼanalarga hurmatni tiklashda katta oʻrin tutadi. Mustaqillikdan keyin Oʻzbekistonning milliy madaniy merosi va tarixini chuqur oʻrganish va ularni yosh avlodga yetkazish borasida juda koʻplab tadbirlar va ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunga kelib, milliy liboslar, musiqa, xalq amaliy sanʼati, milliy raqslarimiz, turizm va shu kabi sohalarda ham milliy qadriyatlar qaytadan jonlandi. Diniy va tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklarga eʼtibor berilib, ularni asrab-avaylash va targʻib qilish ishlari bugungu kunda ham keng koʻlamda olib borilmoqda.

Asosiy qism:Oʻzbekiston Respublikasi mustqail boʻlganidan keyin milliy bayramlar va milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi mamlakatimiz hayotida katta ahamiyatga ega boʻldi. 1991-yil 31-avgustda Oʻzbekiston mustqail davlat sifatida dunyo hamjamiyatiga qoʻshildi va milliy qadriyatlarni tiklash, tarixiy merosni asrash, milliy ongni rivojlantirish jarayonlari boshlandi. Bu kabi jarayonlar siyosiy, madaniy va maʼnaviy jihatdan juda katta ahamiyatga ega boʻldi. Mustaqilligimiz tufayli Oʻzbekistonda yangi bayramlar, shuningdek, eski milliy bayramlar qayta tiklandi. Mening fikrimcha, bayramlarning har biri oʻziga xos tarixiy va madaniy ahamiyatga

ega bo'lib, ularning qayta tiklash xalqni birlashtirishga, milliy ongini rivojlantirishga, o'ziga xos va mos qadriyatlarni saqlab qolishga yordam beradi.

Har bir kishida o'z xalqining tili, ruhiyati, an'analari, qadriyatlari barq urib turadi. Hozirgi kunga kelib, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti milliy qadriyatlarning jamiyat hayoti va mamlakat taraqqiyotidagi ahamiyatini tahlil qildi va O'zbekistonda "Muhim milliy qadriyatlar" ro'yxatini shakllantirish taklifi bilan chiqdilar. Ularning fikricha, quyidagilarni milliy qadriyatlar ro'yxatiga kiritish mumkin: ota-onaga ehtirom, tozalik, harakatda barakat, o'zbek tili, diniy bag'rikenglik, so'z erkinligi, lafz, yelkadoshlik, mehmondo'stlik, rozi-rizolik kabilar. Bunday ro'yxatni tuzish jahon tajribasida ham mavjud ekan. Masalan, Rossiya misol qilib keltirilgan. Jamiyatdagi tinchlik, barqarorlik, taraqqiyot va farovonlik bevosita qadriyatlar bilan bog'liq ekanini ko'rishimiz mumkin. Qadriyatlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'linadi, ya'ni millat, xalq uchun xos bo'lgan qadriyatlar-milliy qadriyatlar, butun bashariyat uchun xos bo'lgan qadriyatlar bo'lsa-umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning qo'lga kiritilishi 19921-yil 31-avgustda bo'lib o'tgan voqea, milliy uyg'onish va o'zlikni tiklashning muhim bosqichiga aylanadi. Yurtimizda mustqillikdan keyin madaniy, tarixiy va ijtimoiy hayotda katta o'zgarishlar bo'ldi. Ayniqsa, milliy bayramlarimiz va qadriyatlarimizning qayta tiklanishi uchun katta sharoit yaratildi. Bizning milliy bayramlarimiz faqatgina tarixiy sanalar bo'lib qolmaydi. Balki, xalqni birlashtiradigan, milliy g'ururni uyg'otadigan, o'zligimizni anglashimizni kuchaytiradigan vosita deb bilaman. Mustqaullik kuni- O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida dunyo sahnasiga chiqishi va yangi davlatning milliy bayrami sifatida mustahkamlandi. Bu bayram en yirik milliy bayramlarimizdan biri bo'lib, u butun mamlakatimiz bo'ylab keng nishonlanib kelinmoqda. O'zbekistonda "Navro'z"-milliy o'zlikning ajralmas bir qismi. Oldin sovet O'zbekistonida Navro'z bayrami taqiqqa uchragan edi. Mustaqillikdan keyin Navro'zning qayta tiklanishi va uning davlat bayrami sifatida e'lon qilinishi milliy madaniyatni saqlash, xalqni birlashtirish va tarixiy ildizlarga hurmat ko'rsatishning ko'zgasiga aylandi. 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, "Navro'z bayrami" davlat miqyosida keng nishonlash belgilandi. Bu bayramning asosiy jihatlaridan biri-xalq o'yinlari, qo'shiqlari, an'anaviy raqslar, mehmonlarga tortiq qilinadigan milliy taomlar va tabiiy ravishda Navro'z dasturxonini bo'ladi. Bular orqali o'zbek xalqining qadimiy ur-odatlarini va mehnatining qadri, tabiatga hurmat, mehr-muhabbat va yaxshilikka erishish g'oyalari targ'ib qilinadi. O'zbek xalqi Navro'zning ramzi sifatida-sumalak tayyorlaydi. 2010-yil 23-fevralda Afg'oniston, Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Iroq, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiyaning tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 21-martni "Xalqaro Navro'z kuni" deb e'tirof etish haqida qaror qabul qildi. YUNESKO e'lon qilishicha, Navro'z-muhim

oilaviy an'anadir va bu bayramda pishiriladigan taomlar, hamma joylarning toza-ozoda bo'lishi, faravonlik va boylikni ifoda qiladi. BMT maorif, fan va madaniyat tashkiloti-YUNESKO "Navro'z"ni Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritgani bejiz emas.

Qadriyatlarimizning qayta tiklanishi O'zbekiston kelajagiga mustahkam asos yaratdi. Qadriyatlar jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajagi uchun muhim vositalardan biri hisoblanadi. Bizning milliy qadriyatlarimiz bebaho boyligimiz deb hisoblayman. Qadriyatlar- bu xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati, diniy va ma'naviy merosi, axloqiy normalari hamda urf-odatlarini tushuniladi. Qadriyat- jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajagi uchun muhimdir. Hozirgi kunda yosh avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o'zini va ahamiyati muhim. Hech birimizga sir emaski, qadriyat masalasi islomda ibodat darajasiga ko'tarilgan. Ibodatlar mohiyatida esa qadriyatlarni muhofaza qilish yotadi. Masalan, Qur'oni karim va hadisi shariflarda ota-onaga yaxshilik qilish alohida ta'kidlangan. Bu qadriyat savobi ulug' amallardan biri hisoblanadi. Qadimdan ulug'langan yana bir qadriyat bu-kattalarga hurmat, rahbarga itoat, qonunga rioya qilishdir. Mulkiy va diniy qadriyatlarimizdan yana biri-halollik hisoblanadi. Biz kelajak avlod qadriyatlarimizni asrab-avaylashimiz darkor.

Xulosa: Mustqillik biz uchun nafaqat siyosiy, madaniy, iqtisodiy va ma'naviy erkinliklarni ham anglatadi. Xulosa qilib aytganda, Mustaqillik-milliy o'zlikni, erkinlikni anglatgan holda, xalqimizning qadriyatlari va madaniyatini yanada rivojlantirishga turtki bo'ldi. Biz yoshlar milliy bayramlarimizni nishonlash, qadriyatlarimizni hurmat qilish orqali biz o'zligimizni saqlash bilan birga, dunyoga o'z tariximiz va madaniyatlarimizni tanitishda davom qilamiz.